


O'RQ-406-son, 14.09.2016-y.



"YOSHLARGA OID DAVLAT SIYOSATI TO'G'RISIDA"GI QONUN





Bu Qonunning maqsadi — yoshlar bilan bogʻliq davlat siyosati qanday amalga oshirilishini tartibga solishdir



Yoshlarga oid davlat siyosati nima degani? Yoshlarga oid davlat siyosati - davlat tomonidan yoshlarning yaxshi tarbiya topishi, bilim olishi, iste'dodi va qobiliyatini rivojlantirishi uchun zarur sharoitlar yaratishga qaratilgan iqtisodiy, tashkiliy va huquqiy tadbirlar majmuasidir



Yoshlar (yosh fuqarolar) —
14 yoshga toʻlgan va hali
30 yoshdan oshmagan
shaxslardir



Kimlar yoshlar hisoblanadi?

Konstitutsiya va qonunlarga ko'ra, har bir yoshning huquq va erkinliklari kafolatlanadi. Uning millati, tili yoki oilaviy holatidan qat'i nazar, huquq va erkinliklari cheklanmaydi



Qonunchilikda yoshlar uchun qanday kafolatlar bor?

- ✓ Bepul tibbiy xizmat
- ✓ Bepul umumiy o'rta va o'rta maxsus ta'lim
- ✓ Davlat grantlari doirasida bepul kasb-hunar va oliy ta'lim
- ✓ Uy-joy olish uchun imtiyozli kreditlar
- ✓ Yetim bolalar va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni turar joylar bilan ta'minlash



Yoshlarning nodavlat notijorat tashkiloti — yoshlarning huquqlari va manfaatlarini himoya qilish, ularga yordam berish hamda hayot sifatini yaxshilashga xizmat qiluvchi tashkilotdir. U yoshlarning ta'lim olishi, fikri va qiziqishlarini qo'llab-quvvatlaydi



Yoshlar tadbirkorligi qanday qo'llab-quvvatlanadi?

- ✓ Davlat yoshlar o'z ishini boshlashi uchun yordam beradi
- ✓ Yoshlar uchun qulay shartlarda qarz (kredit) beriladi
- ✓ Yoshlarni biznes qilishni o'rganishga o'qitadi
- ✓ Yoshlar o'z ishini rivojlantirishi uchun maxsus yordam dasturlari qilinadi



O'zbekistonda yoshlar va yosh oilalarga yordam beradigan yoshlar ijtimoiy xizmati bor. Bu xizmat yoshlarga maslahat beradi va huquqlarini tushuntiradi. Nogironligi bo'lgan yoshlarga ham alohida yordam ko'rsatadi